

## VAQT VA O'LCHOV BIRLIKLARIGA OID SO'ZLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Achilova Noila,**

Buxoro davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada vaqt va o'lchov birliklariga oid so'zlarning pragmatik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi. Qayd etib o'tish lozimki, vaqt hamda o'lchov birliklariga oid so'zlarning pragmatik jihatlari aynan og'zaki hamda yozma nutq tarkibida namoyon bo'lib, ularning mohiyatini anglash ushbu guruhga oid so'zlarni matn tarkibida o'rganish jarayonida yuzaga chiqadi. Vaqt va o'lchov birliklari bilan bog'liq so'zlarning pragmatik jihatdan tadqiq etilishi ushbu so'zlarning yanada kengroq doirada tahlil etilishiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** vaqt birliklari, o'lchov birliklari, pragmatik tahlil, og'zaki nutq, yozma nutq, lingvistik tahlil.

## ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СЛОВ ОТНОСИТЕЛЬНО ВРЕМЕНИ И ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ

**Ачилова Ноила,**

аспирант Бухарского государственного университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются прагматические особенности слов, связанных со временем и единицами измерения. Следует отметить, что прагматические аспекты слов, связанных со временем и единицами измерения, проявляются в устной и письменной речи, а понимание их сущности возникает в процессе изучения слов, относящихся к данной группе в тексте. Прагматическое исследование слов, связанных со временем и единицами измерения, помогает анализировать эти слова в более широком плане.

**Ключевые слова:** единицы времени, единицы измерения, прагматический анализ, устная речь, письменная речь, лингвистический анализ.

## PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF WORDS REGARDING TIME AND MEASUREMENT UNITS

**Achilova Noila,**

Graduate student of Bukhara State University

**Abstract.** This article discusses the pragmatic features of words related to time and measurement units. It should be noted that the pragmatic aspects of words related to time and units of measurement are manifested in oral and written speech, and the understanding of their essence emerges in the process of studying words related to this group in the text. Pragmatic research of words related to time and units of measure helps to analyze these words in a wider scope.

**Keywords:** units of time, units of measurement, pragmatic analysis, oral speech, written speech, linguistic analysis.

Tilshunoslikning morfologiya sohasi so‘z turkumlari tadqiqi bilan shug‘ullanish bilan birgalikda ularning grammatik xususiyatlarini namoyon etadi. Biz tahlil etmoqchi bo‘lgan ushbu maqolada son so‘z turkumi hamda uning tarkibida o‘rganiluvchi hisob so‘zlar doirasiga kiruvchi vaqt hamda o‘lchov birliklariga oid birliklarning pragmatik xususiyatlari aks ettirilgan. Ta’kidlash o‘rinliki, vaqt hamda o‘lchov birliklariga oid so‘zlarning pragmatik xususiyatlari og‘zaki va yozma nutq doirasida tadqiq qilinadi, ya’ni ushbu so‘zlarning matn ichidagi holati mavzu uchun ahamiyatli hisoblanadi[3].

Vaqt birliklarini aks ettiruvchi hisob so‘zlar, nomidan ko‘rinib turganidek, vaqt mavzusiga taalluqli hisoblanadi, ya’ni vaqtni anglatuvchi miqdorni bildiruvchi ko‘rsatkichlar ushbu birliklarni tashkil etadi, jumladan, daqiqa, asr, soniya, zum, yil, oy, hafta va hokazo[5]. Ushbu tarkibga kiruvchi o‘lchov birliklarining ba’zilari matn tarkibida bir ma’no anglatasa, boshqa holatlarda umuman o‘zga ma’no bildirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu ularning pragmatik tahlili bilan aloqador hisoblanib, o‘z doirasida leksikologik asoslarni ham namoyon eta oladi. Chunonchi, “soat” istilohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ilmiy manbalarda ushbu birlik oltmish daqiqa yoki bo‘lmasa 3600 soniyaga teng ekanligi borasidagi faktlarga duch kelamiz. Ayni vaqtda esa uning boshqa ma’nosi ham mavjud bo‘lib, vaqt ko‘rsatkichini ifodalashda qo‘llanilishi bilan ahamiyatlidir. Quyidagi misollarga e’tibor bering:

1. *Oradan ikki soat vaqt o‘tdi.*
2. *Soat necha bo‘ldi?[4]*

Yuqorida qayd etilgan misollardagi “soat” tushunchasi tubdan boshqa-boshqa ma’no kasb etmoqda. Birinchi gapda soat atamasi 120 daqiqani ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi gapda ushbu so‘z “vaqt” ma’nosida ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, vaqt ko‘rsatkichini ifodalovchi “daqiqqa” so‘zi ham mavjud bo‘lib, uning tahlili quyidagi misol orqali anglashiladi: “*Daqiqalar o‘tar, Dildorning yuragi esa hayajondan borgan sari tezroq urar edi*”. Ushbu misolda keltirilgan “daqiqalar” so‘zi mazmunni kuchaytirish bilan birgalikda gapda noaniqlikni ham ifodalab kelmoqda[6].

Zum istilohi ham vaqt ko‘rsatkichlarini ifodalovchi birlik hisoblanib, Wikipedia online ochiq lug‘atida ushbu so‘zga quyidagicha izoh beriladi:

1. *Chillak o‘yinida nafas olmay yugurib ketayotganda uzluksiz chiqarib boriladigan tovush.*
2. *Juda qisqa fursat, lahza, on[8].*

Ushbu maqolamiz uchun zum so‘zining ikkinchi ma’nosi ahamiyatli hisoblanib, uning ikki xil ko‘rinishi qayd etiladi, ya’ni yakka holatda qo‘llaniladigan shakli hamda “bir” leksik birligi ishtiroki yordamida aks etgan ko‘rinishi. Biroq shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, ikkala ko‘rinish ham bir xil ma’noni anglatadi. Quyida keltirilgan ikki misolga e’tibor bering:

- I. *Inobat go‘yo so‘z topolmagan odamday, bir zum jim qoldi. O. Yoqubov. “Er boshiga ish tushsa”.*
- II. *Zum o‘tmay Alimardon tag‘in ko‘zini ochdi[7].*

Ikkala gapda qo‘llanilgan zum so‘zlari mazmun jihatidan bir xil ma’noni anglatadi.

O‘lchov birliklariga oid hisob so‘zlar ma’lum miqdorni o‘lchash uchun qo‘llaniladigan numerativlar hisoblanib, ularni mazmun jihatidan uzunlik o‘lchovi, og‘irlik o‘lchovi kabi yirik guruhlariga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq. O‘lchov birliklarini ifodalovchi numerativ so‘zlar qo‘llanilish doirasiga ko‘ra tarixiy hamda zamonaviy birliklarga hamda qaysi tildan o‘zlashganligiga ko‘ra o‘z va o‘zlashgan qatlamga ajratiladi. Jumladan, botmon, tanob kabi so‘zlar qo‘llanilish davriga ko‘ra tarixiy qatlamni tashkil etsa, kilogramm, gramm kabi ifodalar o‘zlashilish doirasiga binoan o‘zlashgan qatlamni tashkil etadi. Ularni pragmatik jihatdan tahlil qilish jarayonida, dastavval, uning og‘zaki yoki yozma matn ichida aks etishiga alohida e’tibor berish lozim, jumladan, eskirgan guruhga oid bo‘lgan birliklar, asosan, yozma matnlar doirasiga aloqador holda ishlatilsa, chet tillaridan o‘zlashgan istilohlar og‘zaki nutqiy holat uchun mos sanaladi. Tarixiy shaklga ega bo‘lgan o‘lchov birliklariga oid so‘zlar, ayniqsa, aholining yuqori yoshli qatlami orasida mashhurdir, quyidagi misolga e’tibor bering: *Jo‘ra, senga necha botmon yer ajratishdi? (72 yoshli*

*Odil boboning nutqidan olingan parcha*)[7]. Ushbu gapda qoʻllanilgan “botmon” soʻziga Wikipedia online lugʻatida quyidagicha taʼrif keltiriladi:

1. Oʻrta Osiyoning, shuningdek, Oʻzbekistonning turli yerlarida turli mezonlarga, salmoqqa ega boʻlgan ogʻirlik oʻlchov birligi.
2. Taxminan bir gektaga teng sath oʻlchov birligi[5].

Demak, “botmon” istilohi ikki xil mazmuni ifodalab, birinchi mazmuni ogʻirlik oʻlchovini anglatadi, ikkinchi mazmuni esa uzunlik oʻlchov birligiga nisbatan qoʻllanilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi, yuqorida keltirilgan gapda esa ushbu istiloh aynan uzunlik oʻlchoviga nisbatan qoʻllanilgan.

Kilogramm tushunchasi ham oʻlchov birliklarini anglatuvchi tushuncha sifatida qoʻllanilib, uning ogʻirlik nutqida kilo shakli ham anchayin faol tarzda qoʻllaniladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, vaqt va oʻlchov birliklariga doir hisob soʻzlar xususida fikr yuritganda, ularning har bir jihatiga eʼtiborli boʻlish, kelib chiqish nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ogʻirlik hamda yozma nutqqa oid matnlar ichida tadqiq qilish ularning pragmatik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ["Large Numbers \(page 2\) at MROB"](#). mrob.com. Retrieved 2020-12-23.
2. Abdurahmonov. N. Juft soʻzlarda son kategoriyasi (Turkiy tillar materiallari asosida). –Samarqand universitetining asarlari. 227 – son, 1971 y.
3. Cardarelli, François (2012). *Encyclopaedia of Scientific Units, Weights and Measures: Their SI Equivalences and Origins* (Second ed.). Springer. p. 585. [ISBN 978-1447100034](#).
4. Ezard, John (2 Jan 2003). ["Tolkien catches up with his hobbit"](#). The Guardian. Retrieved 6 Apr 2018.
5. Nizomiddinova S. Hozirgi oʻzbek tilida son., Toshkent, 1963 y.
6. Nizomiddinova S. Sonning numerativ soʻzlar bilan qoʻllanishi. «Oʻzbek tili va adabiyoti», 1957, 2-son.
7. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
8. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
9. [www.hozir.org](http://www.hozir.org)
10. [www.google.com](http://www.google.com)